

O‘ZBEK TILIDA MUHABBATNI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING VERBALLASHUVI

Abdusamatova Nafisa Berdiyevna,

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida muhabbat izhorini ifodalovchi leksik birliklarning verballashuvi jarayoni tahlil qilinadi. Tilshunoslikda verballashuv tushunchasi insonning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini nutqiy shaklga o‘tishi, ya’ni lingvistik ifodaga ega bo‘lishi jarayoni sifatida izohlanadi. Muhabbat konsepti milliy til va madaniyatda muhim kommunikativ hodisa bo‘lib, unda turli leksik vositalar — erkalash so‘zlari, murojaat shakllari, metaforik iboralar va frazeologizmlar faol qo‘llanadi. Ushbu maqolada asosan badiiy matnlar va hikmatli so‘zlardan na‘munalar olinib, keltirilgan misollarda muhabbat izhorini voqealantiruvchi leksik birliklar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: muhabbat izhori, muhabbat, sevgi, ishq, ko‘ngil, oshiq, pragmatika, konsept, leksik birlik.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс вербализации лексических единиц, выражающих любовь в узбекском языке. В лингвистике понятие вербализации трактуется как процесс перехода внутренних переживаний, чувств и социокультурных ценностей человека в речевую форму, то есть их приобретение лингвистического выражения. Концепт любви является важным коммуникативным явлением в национальном языке и культуре, где активно используются различные лексические средства — ласкательные слова, формы обращения, метафорические выражения и фразеологизмы. В статье в основном рассматриваются примеры из художественных текстов и изречений, проводится анализ лексических единиц, актуализирующих изъявление любви.

Ключевые слова: признание любви, любовь, чувство, страсть, сердце, влюблённый, прагматика, концепт, лексическая единица.

Abstract. This article analyzes the process of verbalization of lexical units expressing love in the Uzbek language. In linguistics, the concept of verbalization is explained as the process in which a person's inner feelings, emotions, and socio-cultural values are transformed into a speech form, that is, acquire linguistic expression. The concept of love is an important communicative phenomenon in national language and culture, where various lexical means — affectionate words, forms of address, metaphorical expressions, and phraseological units — are actively used. In this article, mainly examples from literary texts and aphorisms are considered, and the lexical units that actualize the expression of love are analyzed.

Keywords: declaration of love, love, affection, passion, heart, lover, pragmatics, concept, lexical unit.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodning sog‘lom, intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topishi, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizda ilm-fanni jahon miqyosida rivojlantirish yo‘lida olimlar va ilmiy jamoalar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish davlatning muhim vazifasi ekanligini ta’kidlagan fikrlari ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning mohiyatini yaqqol ifodalaydi.[1]

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishi qadimgi yozma manbalar hamda turkiy tilshunoslik an‘analari bilan chambarchas bog‘liqdir. XX asrdan boshlab tilshunoslik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, fonetika, grammatika, leksikologiya, dialektologiya kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirildi. Mustaqillik davrida esa o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi mustahkamlanib, uni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. Hozirgi kunda tilshunoslik sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika, tarjimashunoslik kabi zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar doirasida jadal rivojlanmoqda.

Til insonning hissiy olami, ichki kechinmalari hamda ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy kommunikativ vosita hisoblanadi. Ayniqsa, muhabbat kabi umuminsonga xos tuyg‘uni ifodalashda tilning ifoda imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Har bir xalq madaniyatida muhabbat izhoriga oid maxsus leksik birliklar, murojaat shakllari va obrazli ifodalar mavjud bo‘lib, ular milliy dunyoqarash va mentalitetning yorqin namunasidir.[9] O‘zbek tilida sevgi va muhabbat tushunchalari yurak, ko‘ngil, ishq, oshiq kabi birliklar orqali samimiy va obrazli tarzda ifodalanadi. Muhabbat konsepti lingvopragmatik hodisa sifatida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi hissiy yaqinlik, ishonch va samimiyatni mustahkamlovchi muhim omil vazifasini bajaradi. Shu bois, muhabbat izhorini ifodalovchi leksik birliklarning verbal ifodasini tadqiq etish til tizimi bilan bir qatorda milliy madaniy qadriyatlarni anglash nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Sevgi va muhabbat inson shaxsiy hayotining hissiy kechinmalari bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardan biri sanaladi. Shaxsning yashash muhiti, millati, dini yoki ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, ushbu tuyg‘ular uning atrof-muhitga, insonlarga va o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiradi. Har bir individ bu tushunchalarni o‘z mentaliteti va qadriyatlariga muvofiq talqin qiladi va shu orqali muayyan jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Qadim zamonlardan beri sevgi va muhabbat mavzusi Sharqda Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy singari mutafakkirlar, G‘arbda esa qadimgi yunon mifologiyasi hamda Aristotel, Aflotun, Suqrot kabi faylasuflar, shuningdek, R. Tagor, U. Shekspir, B. Shou kabi adabiyot namoyandalari ijodida keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida muhabbatni ifodalovchi leksik birliklarning verballashuvi jarayoni kompleks lingvistik yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va lingvokulturologiya yo‘nalishlari tashkil etdi.

Empirik material sifatida badiiy matnlar, aforizmlar va hikmatli so‘zlar tanlab olindi. Tahlil jarayonida tavsifiy, kontekstual va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, kognitiv yondashuv orqali muhabbat konseptining metaforik va obrazli ifodalanish xususiyatlari yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda verballashuv tushunchasi inson tafakkurida shakllangan ma'no, konsept yoki hissiy holatlarning til birliklari orqali ifodalanish jarayonini anglatadi. Ya'ni, bu jarayon abstrakt fikr va kechinmalarning konkret lingvistik shakl — soʻz, ibora yoki matn orqali namoyon boʻlishi bilan tavsiflanadi. A. Vejbitskaya verballashuvni “inson ongida mavjud boʻlgan konseptual mazmunning til tizimi vositasida kodlanishi” sifatida talqin qiladi.[6]

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, verballashuv konseptualizatsiya va kategoriyalashuv jarayonlari bilan uzviy bogʻliqdir. J. Lakoff va M. Jonson fikricha, inson tajribasi va hissiyotlari metaforik modellar asosida shakllanib, til orqali verballashadi.[3] Ayniqsa, abstrakt tushunchalar — muhabbat, erkinlik, qoʻrquv kabi holatlar koʻpincha metafora va obrazli ifodalar vositasida tilga koʻchiriladi.

Pragmalingvistika doirasida esa verballashuv jarayoni nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va adresat omiliga bogʻliq holda yuzaga chiqadi. N.D.Arutyunova verballashuvni nutq subyektining baholovchi munosabati bilan chambarchas bogʻliq jarayon sifatida izohlaydi.[7] Bu jarayonda soʻzlovchining ijtimoiy maqomi, madaniy tajribasi va pragmatik niyati muhim rol oʻynaydi.

Shunday qilib, verballashuv jarayoni til, tafakkur va madaniyat uygʻunligini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa boʻlib, uni oʻrganish inson nutqiy faoliyatining chuqur mexanizmlarini anglashga xizmat qiladi.

Maqolamizda “muhabbat” “sevgi” “ishq” leksik birliklarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo leksik birlik tushunchasiga eʼtiborimizni qaratsak. Leksik birlik deganda bir soʻz, soʻz birikmasi yoki maʼnosi jihatidan bitta soʻzga teng boʻlgan frazeologik birlik tushuniladi. Ingliz tilshunosi D.A.Crusening fikricha leksik birlik — bu leksik shakl va yagona maʼnoning integratsiyasidir. Leksik shakl esa oddiy harflar majmuasi emas, balki oʻziga xos morfologik hamda sintaktik xususiyatlarga ega boʻlgan til birligidir.[2] Leksik birliklar leksikologiyaning asosiy obyekti boʻlib, u tilshunoslikning eng yirik boʻlimlaridan biri sifatida muayyan tilning leksik boyligini oʻrganadi. Leksikografiya doirasida esa leksik birlik til leksikasining tarkibiy elementlari sifatida alohida soʻz, soʻzning qismi yoki soʻzlar zanjiri koʻrinishida namoyon boʻladi.

Leksik birliklarning aforizmlar tarkibida verballashuvini oʻrganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aforizmlar xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlar va hayotiy tajribasini ixcham va taʼsirchan shaklda ifodalaydi [8]. Ular tarkibidagi leksik birliklar esa semantik kengayish, obrazlilik va ramziylik kasb etadi. Shu bois bunday tadqiqot leksikologiya, stilistika va pragmatika uchun dolzarb ilmiy manba hisoblanadi.

Oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi va adabiy merosida muhabbat izhori alohida oʻrin tutadi. Ayniqsa, hikmatli soʻzlarda sevgi va mehrning majoziy hamda obrazli ifodasi koʻp uchraydi. Hikmatli soʻzlar xalqning hayotiy tajribasidan oʻsib chiqqan boʻlib, ularda muhabbat insoniy fazilatlarining eng yuksagi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda

muhabbatni ifodalovchi leksik birliklar ichki hissiyotlardan nutqiy shaklga o'tib, verballashuv jarayonini yuzaga keltiradi. Ularning semantik-pragmatik tahlili xalq tafakkuri va milliy qadriyatlarini yanada chuqur anglash imkonini beradi.

Quyida biz o'zbek tilidagi hikmatli so'zlarda muhabbat izhorining leksik birliklar orqali voqealanishiga e'tiborimizni qaratsak;

Ming mashaqqat bilan quriladigan qasr muhabbat qasridir, osongina buzulib ketadigani ham shu. (Tafakkur jurnali 3/2022 100-bet)

Keltirilgan misolda muhabbat izhori ramziy shaklda verballashgan. Bu yerda "qasr" metaforasi orqali muhabbatning qadri, mustahkamligi va nozikligi ifodalanmoqda. Verballashuv jarayoni muhabbat tuyg'usini bevosita "sevaman" deya emas, balki ramziy-majoziy vositalar orqali bayon etadi. Shu bilan birga, mashaqqat va osongina buzilish qarama-qarshiligi muhabbatning murakkab tabiatini ochadi. Demak, ushbu gapda muhabbat izhori indirekt, obrazli va majoziy verbal shaklda ifodalanib, ma'naviy-ruhiy qadriyat sifatida aks etmoqda.

O'zini sevmagan inson na o'zgani, na Xudoni sevadi. (Tafakkur jurnali 3/2022 101-bet)

Ushbu misolda muhabbat izhorining verballashuvi axloqiy-ma'naviy nuqtayi nazardan ifodalangan. Bu yerda muhabbat shaxsiy tuyg'udan kengroq — o'zini qadrlash, boshqalarni va ilohiy kuchni sevish bilan bog'langan holda verbal shaklga keltirilgan. Gapda inkor shakli orqali muhabbatning mavjudligi emas, balki shartlilik ta'kidlanadi. Demak, muhabbat konsepti faqat romantik tuyg'u emas, balki insoniy komillik mezoni sifatida verbal ifodasini topgan. Shu tarzda izhor ramziy, umumlashma va didaktik ohangda verballashgan.

Aqlga bo'ysunmaydigan birgina hissiyot bor, u ham bo'lsa muhabbat...(Tafakkur jurnali 3/2022 101-bet)

Mazkur misolda muhabbat izhorining verballashuvi insoniy hissiyotlarning eng qudratlisi sifatida aks etmoqda. Bu yerda muhabbat "aqlga bo'ysunmaydigan" deb ta'riflanib, uni boshqa hissiyotlardan ajratib turuvchi kuchli majoziy ifoda qo'llangan. Verballashuv jarayoni orqali muhabbat bevosita "sevgi" deb emas, balki aql va his qarama-qarshiligi orqali ta'riflangan. Shu bilan muhabbat konsepti inson tafakkurida mustaqil, nazoratdan tashqari va eng oliy tuyg'u sifatida verbal shaklda ifoda topadi.

Insonga muhabbat yo'lidagi azob ham rohat bag'ishlaydi. (Tafakkur jurnali 3/2022 101-bet)

Keltirilgan misolda muhabbat izhorining verballashuvi paradoksal mazmunda ifodalangan. Gapda "azob" va "rohat" qarama-qarshi tushunchalari qo'llanib, muhabbatning murakkab va ikki qirrali mohiyati verbal shaklga keltiriladi. Bu ifoda orqali muhabbat inson qalbida nafaqat quvonch, balki azob ham ijobiy ma'no kasb etishi mumkinligi ta'kidlanadi. Demak, muhabbat konsepti bu yerda ruhiy sinov va zavqni birlashtiruvchi oliy tuyg'u sifatida majoziy va obrazli tarzda verballashgan.

Inson vujudining eng go‘zal uzvi-oshiq ko‘zlaridir. (Tafakkur jurnali 3/2022 100-bet)

Keltirilgan misolda muhabbat izhorining verballashuvi ko‘z obrazi orqali berilgan. Bu yerda ko‘z inson tanasining eng go‘zal qismi sifatida emas, balki muhabbatni ifodalovchi ramz sifatida talqin etiladi. “Oshiq ko‘zlar” birikmasi muhabbatning tashqi belgisini, ichki tuyg‘ularning yorqin ko‘rinishini bildiradi. Verballashuv jarayonida muhabbat bevosita “sevgi” yoki “muhabbat” so‘zlari bilan emas, balki metonimik yo‘l bilan – ko‘z orqali ifodalangan. Shu tarzda muhabbat konsepti ramziy, poetik va estetik mazmunda verbal shaklga keltirilgan.

Dunyoda mukammal narsa yo‘q. Hatto muhabbat deb atalmish oliy tuyg‘uda ham adolatsizlik bor. Kim qattiqroq sevsa, o‘sha ko‘proq iztirob chekadi. (O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Keltirilgan misolda muhabbat izhorining verballashuvi falsafiy-didaktik shaklda ifodalangan. Bu yerda muhabbat oliy tuyg‘u sifatida tan olingan bo‘lsa-da, undagi nomukammallik va adolatsizlik ochib beriladi. Verballashuv jarayoni “kim qattiqroq sevsa, o‘sha ko‘proq iztirob chekadi” jumlasini orqali kuchaytirilib, muhabbatning nafaqat shodlik, balki iztirob manbai ekanligi ta‘kidlanadi. Demak, izhor bevosita “sevaman” orqali emas, balki hayotiy tajriba va ruhiy kechinmalarni umumlashtiruvchi falsafiy obraz vositasida ifoda topgan.

Ayol sizni juda qattiq sevsa, hushyor bo‘ling. Otashin muhabbat-rashkka, rashkshubhaga, shubha-xudbinlikka, xudbinlik-dushmanlikka aylanishi mumkin. (O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Keltirilgan misolda **muhabbat izhori** murakkab emotsional va psixologik holatlarning izchilligi orqali izohlanmoqda. Misoldagi “ayol sizni juda qattiq sevsa” jumlasini muhabbatning yuqori darajada, intensiv shaklda kechishini bildiruvchi **verbal ifoda** hisoblanadi. Bu yerda “sevsa” fe‘li muhabbat tuyg‘usining faol harakatga aylangan, subyekt tomonidan ifodalangan shakli bo‘lib, muhabbat konseptining **dinamik va subyektiv mohiyatini** ochadi. Keyingi qatorlar – “rashk”, “shubha”, “xudbinlik”, “dushmanlik” – muhabbatning semantik maydonini kengayishini ko‘rsatmoqda. Natijada muhabbat izhorining verballashuvi nafaqat ichki his-tuyg‘u ifodasini, balki uning salbiy oqibatlarini ham tildagi izchil semantik zanjir orqali aks ettiradi.

Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o‘xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof... Na qo‘lingiz bilan tutasiz. Na ortidan yugurib yetasiz... Shamol uni qayoqqa olib ketishini ham bilmaysiz... Birinchi muhabbat ko‘pincha natijasiz tugashi balki shundandir... (O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Keltirilgan misolda **muhabbat izhorining verballashuvi** badiiy tasviriy vositalar orqali ifodalangan. “Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o‘xshaydi” jumlasida muhabbat izhori **metaforik tarzda** bulut obrazida gavdalanmoqda. Bu yerda “bahor”, “bulut”, “oppoq”, “pokiza”, “shaffof” kabi leksik birliklar orqali muhabbatning

beg‘ubor, sof va o‘tkinchi tabiati aks ettirilmogda. birliklardir. Gapdagi “Na qo‘lingiz bilan tutasiz, na ortidan yugurib yetasiz” jummalari muhabbatning tutilmas va mavhum holatini pragmatik va stilistik jihatdan kuchaytiradi. “Shamol uni qayoqqa olib ketishini ham bilmaysiz” degan qism esa muhabbatning taqdiriy va beqaror mohiyatini ifodalaydi. Shu tariqa, muhabbat izhori hissiy va poetik shaklda verballashib, inson ruhiyatidagi noaniqlik va romantik tuyg‘ular tilda jonli badiiy ifodaga ega bo‘ladi.

Yuqorida tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, muhabbat izhorini ifodalovchi “muhabbat” “sevgi” “ishq” leksemalari verballashuvi turli ramz, metafora, qarama-qarshilik va obrazlar orqali ifodalanadi. “Qasr”, “azob”, “rohat”, “ko‘z” kabi timsollar muhabbatning murakkab, ko‘p qirrali mohiyatini yoritadi. Muhabbat ba‘zan aqlga bo‘ysunmaydigan qudrat sifatida, ba‘zan insoniy komillik mezoni yoki ruhiy sinov sifatida verbal shaklga ega bo‘ladi. Shuningdek, uning ijobiy va salbiy jihatlari qarama-qarshi tushunchalar orqali ochiladi. Demak, muhabbat konsepti til vositalarida bevosita emas, balki majoziy, estetik va falsafiy mazmunda keng ko‘lamda verballashadi.

Xulosa. O‘zbek tilida muhabbat izhorining verballashuvi o‘ziga xos lingvomadaniy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, muhabbat izhori bevosita “sevaman”, “sog‘indim” kabi sodda so‘zlar orqali emas, balki ko‘pincha ramziy, majoziy, falsafiy va poetik shakllarda verbal ifodaga ega bo‘ladi. Masalan, “muhabbat qasri” iborasida sevgi mustahkam, ammo shu bilan birga nozik tuyg‘u sifatida ko‘rsatiladi; “aqlga bo‘ysunmaydigan hissiyot” shaklida u nazoratdan tashqaridagi qudratli kuch sifatida talqin etiladi; “azob ham rohat bag‘ishlaydi” jumlasida esa muhabbatning paradoksal mohiyati verbal shaklda yoritiladi. Shuningdek, “oshiq ko‘zlar” ifodasi muhabbatni bevosita qalbda emas, tashqi belgida – ko‘zda aks ettiruvchi obrazli vosita sifatida qo‘llangan.

Bunday misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida muhabbat konsepti ko‘p qirrali va murakkab tuyg‘u sifatida verballashadi. U faqat shaxsiy tuyg‘u emas, balki axloqiy, falsafiy va estetik qadriyatlar bilan ham bog‘liq. Muhabbat izhori ko‘pincha qarama-qarshiliklar (azob–rohat, adolat–adolatsizlik, mukammallik–nomukammallik) orqali ochilib, insoniy hayotning chuqur ma‘nosini ifodalaydi. Shu bois, o‘zbek tili materiallarida muhabbat izhorining verballashuvi semantik boylik, majoziylik, obrazlilik va milliy madaniyatni ifodalashda muhim manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, muhabbat izhori o‘zbek tilida nafaqat oddiy so‘zlashuviy birliklar, balki aforizmlar, maqollar, badiiy tasvir vositalari orqali ham keng qamrovda verbal shaklga ega bo‘ladi. Bu esa o‘zbek xalqining muhabbatga oid qarashlari, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettirishda asosiy lingvistik ko‘zgudir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018-592 b.
2. Cruse, D.A. (1977), "The Pragmatics of Lexical Specificity", Journal of Linguistics 13, 153-164.
3. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

4. O‘.Hoshimov Daftar hoshiyasidagi bitiklar 2022, 192 b.
5. Tafakkur ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali 2022-yil 3-soni, 128 b.
6. Wierzbicka A. Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese Text. / A. Wierzbicka. New York: Oxford University Press, 1997. - 328 p
7. Арутюнова Н. Д. *Язык и мир человека*. Москва: Языки русской культуры, 1999.
8. Воркачев, С.Г. Сопоставительная этносемантика телеономных концептов «любовь» и «счастье» (русско-английские параллели): монография. – Волгоград: Перемена, 2003.
9. Колесов В. В. Язык и ментальность. - СПб, 2004.С.19-20.
10. Кузнецова Л.Э. Любовь. Антология концептов. Т. 3. / Под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернина. – Волгоград: Парадигма, 2006.

